OTA-ONASİ E'TİBORİDAN CHETDA QOLGAN FARZANDLAR PSİXOLOGİYASİ

Nurmatova Kamola Abdumalikjon qizi

Andijon Davlat Universitetining Pedagogika institut, Ijtimoiy fanlar, san'at va jimoniy madaniyatni o'qitish metodikasi fakulteti Pedagogika va psixologiy yo'nalishi, 1-bosqich 102-guruh talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.5884159

Annottatsiya: Mazkur maqolani yozishimdan maqsad, ota-ona e'tiboridan chetda qolgan farzandlar hayoti mavzusini yoritib berish va unga psixologik munosabat bildirish. Tadqiqotlarga qaraganda, ota-onasidan yoki ularning bittasidan ayrilgan farzandlarning baxtli bo'lish, muvaffaqiyatga erishish ehtimoli 7%ga kamayar ekan. Ota-onasi bo'la turib yetarlicha e'tibor, mehr ko'rmaslik bu farzand bilan birga yashasada farzand uchun ota-ona yo'qligi bilan barobardur. Ota-onasidan yetarlicha e'tibor, mehr olmagan farzandning -kelajakka bo'lgan umidi, o'ziga bo'lgan ishonchi (bolaning "men"i) pastlab boradi. Hayotda yaxshiliklar borligiga va yaxshi yashashga bo'lgan ishtiyoqi so'nadi. Natijada bunday bolalardan na vataniga, va na oilasiga nafi tegadi, unday farzandlar kelajakda o'zining shaxsiy fikriga ega bo'lmaydi, birovga qaram bo'ladigan inson bo'lib voyaga yetadi. Meni ushbu maqolamda faqat o'z rohatini o'ylab farzandlari tarbiyasi va taqdiriga befarq, e'tiborsiz bo'lgan ota-onalar hayoti haqidagi salbiy holatlar taxlil qilinadi.

Kalit so'z: Oila, ota-ona, mehr, e'tibor, jamiyat, ma'naviyat, salbiy, ijtimoiy tarmoq ,tarbiya.

Tarbiyada tanaffus bo'lmaydi deydi: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev.

"Har bir jamiyat o'z oldiga yetuk va har tomonlama kamol topgan, o'zida butun ijobiy,oliyjanob fazilatlarni birlashtirgan avlodni tarbiyalashni orzu qiladi. Shuning zamirida "bir bolaga yetti mahalla ota-ona" deydi xalqimiz. Lekin hozirgi kunda biz nima qilyabmiz o'z farzandimizga xam mehr,e'tibor bermayabmiz. Ota-ona bag'rida o'sib kelayotkan har bir bola ulardan o'rnak olib yashaydi. Farzandga chiroyli tarbiya berib,ulg'aytirish hamma ota-onaning qo'lidan ham kelavermaydi. **NEGA???** Bu savolga javoban hozirgi kunda juda ko'p ota-onalarimiz qimmatli vaqtlarimi ijtimoit tarmoqlarga sarflashyapti. Bu hozirgi davrda ayni haqiqat,buni yashirib nima qildik,o'spirin

yigit, qizlar desak,hatto kattalarning qo'lida xam telefon. Tun-u kun hamma shu telefonga termulib o'tirishiga,yo'ldami to'y,marakada yoki oila davrasidami doim shu matoh hamrohimizga aylanganiga o'rganib qoldik. Maylida, zamon zayli shunaqa. Davr bilan hamnafas bo'lishimiz kerak,bugungi hayotimizni internetsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, deb ko'nglimizga taskin beramiz. To'g'ri,bu fikrlarni xam inkor eta olmaymiz. Telefon, internet,ijtimoiy tarmoqlardan axborot olish va almashish, bilimlarimizni oshirish, biror bir yumushni, vazifani o'z ish joyimizda,uyimizda turib bajarish uchun foydalansak qanday yaxshi! Istaymizmi yo'qmi endi zamonaviy axborot texnalogiyalari hayotimizning ajralmas bir qismiga aylanib ulgurdi. Hatto, onalar go'dagini telefondagi musiqa bilan ovutayapti. Uy bekalari ham o'z vaqtlarini shu ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazadi. Ishlari tugagan mahal farzandi bilan birga o'tirib cho'plardan har xil shakllar yasamaydi. Bola o'sib kelayotgan davrda uning ichida javobini topmagan savollari juda ko'p bo'ladi,nega onalari shu savollariga javob bermaydi,u endiga nihol kabi o'sayapti,gul kabi nozik,lekin ota-ona uni ijobiy yo'nalishga to'g'ri yo'naltirmayapti. Biz o'z farzandlarimizga mehr berib, kamol toptirmasak nafaqat farzandlarimiz,ularning bo'lajak farzandlari tarbiyasiga,kelajagiga ta'siri yo'q deb kim kafolat beradi? Hech kim….. Biz farzandlarimizga ta'lim va tarbiyani mehr ila hamohang qilib ularni ongiga yetkazib bermasak, ma'naviyati sustlashadi,ma'naviyati qashshoq yoki ma'naviyatidan mahrum bo'lgan odamdan esa biror bir ezgulik kutish mumkin emas. Shuning uchun ota-onalar farzandining psixologik ehtoyojlarini to'g'ri ta'minlashi kerak. Bola dunyoni,atrofni ota-ona ko'zlari bilan anglaydi. Otaga yoki onaga nima yomon bo'lsa,bola xam shuni yomon deb hisoblaydi.Bolaning har bir harakati-bu sizning aksingiz. Lekin ota-ona farzandiga e'tibor bermasa u qanday ruhda tarbiya topadi? U bolalar e'tibordan chetda qolgan hisoblanib; ota-ona qaroviga muxtoj,erkinlash fikri tor,yonidagi tengdoshlariga nisbatan erkin muloqotga kirishga tayyor emas, nutqi rivojlanmagan, bo'lib o'sgan hisoblanadi..Buning salbiy oqibatlari o'sha davrlarda sezilmaydi,vaqt o'tkani sari bolada sekin astalik bilan bog'chada va maktabda yaqqol ko'zga tashlanadi. Maktab davrida xam o'quvchilar orasida ota-ona e'tiboridan chetda qolgan farzandlar ajralib bilinib turadi. Ular mustaqil fikr bildira olmaydi,hatto dars jarayonida xam fikrlar bildirgani cho'chishadi. Ular umri davomida boshqa bir shaxslarga tobe bo'lib qolishadi. Lekin o'sha payt sezganida kech bo'ladi. Negaki? Bolaga o'z vaqtida mexr bilan u bilmoqchi bo'lgan savollarning javobini aytmagan muhtaram ota-ona… Siz tuzatib bo'lmas xato qilyabsiz!

Lekin sizdan shuni so'ragan bo'lar edik farzandingiz taqdiriga befarq bo'lmang!

Bolalar psixologiyasi 19-asr o'rtalarida mustaqil fan sifatida ajralib chiqa boshladi. U pedagogika psixologiyasi, pedagogik oliy asab faoliyati fiziologiyasi bilan chambarchas bog'langandir.

E. Klapared "Bola psixologiyasi va eksperimental pedagogika" kitobida qiziqish motiv, ehtiyojlarning metadologik asoslari, bolalar tafakkurining xususiyatlari va rivojlanish qonuniyatlari ularda dastlabki umumlashtirishning sinkretligi (aralash holatdaligi), o'xshashlik va farqlanishning bola ongida aks etishi to'g'risida mulohaza yuritadi.

G.A.Fortunatov shunday deb yozgan edi: "bolaning harakteri faqat muhitning ta'siri ostida rivojlanmaydi , balki bolaga bo'lgan munosabatlar bolaning o'z muhitida qanday shakllanganligi , u shu muhitda nimalarga qiziqishiga xam bog'liq bo'ladi. Agar bir bolada ichkilikbozlik, beadablik va va sho'xliklarga qiziqish uyg'otsa, boshqasida ularga qo'rquv, vahima, jirkanish yoki nafrat va qarshilik xissini uyg'otish mumkin." Ota-ona tomonidan pedagogik qarovsiz bola va o'smirlarning belgilarini ancha batafsil ta'riflagach, shuni ta'kidlaymanki, bu tarbiyaning ancha murakkab tipi. Bolalar bu nuqsonni yengib o'tish uchun maxsus yondashuvga, aynan qayta tarbiyalshga ehtiyoj sezdilar. Bu jarayon esa bola shaxsining uch sohasiga bo'linadi; ongiga, ahloqiga va emotsional-irodaviy sohalariga uzoq vaqt davomida pedagogik ta'sir ko'rsatishni talab qiladi.

Farzandimiz voyaga yetib, hayoti davomida yaxshi yashashi uchun unga yoshligida yetarlicha e'tibor bermog'imiz zarur.Yaxshi ota-ona bo'lish-har bir ota-ona uchun odatiy istak. Lekin yaxshi va ibratli ota-ona bo'lish uchun avvalo…….

Ota-ona bolada estetik tarbiya, go'zal manzalardan zavq olish hissini shakllantirish uchun uni o'zi bilan birga tabiatdagi manzarali joylarga, muzeylarga olib borishi va shu bilan birga uning qalbida go'zallik latofatini singdirishi muhim.

Tarbiyada eng muhim vosita bu mehr va shirinso'zlik bilan tarbiyalashdir. "Farzandlaringizga ta'lim bering, chunki ular sizniki bo'lmagan vaqt uchun tug'ilganlar", deb har bir ota-onani bolaning o'z zamonasi ilm-fani, ta'limi va tarbiyasiga befarq qaramaslikka chaqiringlar.

Ideal ota-ona qanday?

- ✓ Yaxshi ota-ona hech qachon bolasidan g'azablanmaydi va unga baqirmaydi:
- ✓ Bolani arzimagan xatolari uchun kaltaklamaydi:
- ✓ Ular bolasi bilan bir necha soat birga qiziqarli mashg'ulotlar qiladi:
- ✓ Ular bola hayotida sodir bo'layotkan hamma narsadan habardor:
- ✓ Ular har doim tabassum qiladi va har qanday vaqtda yordam berishga tayyor:
- ✓ Ularning bolasi hech qachon kasal bo'lmaydi,chunki ular g'amho'r ota-ona har qanday kasallikni oldini oladi:
- ✓ Ular bo'sh vaqtlarini farzandlari davrasida o'tkazishadi:
- ✓ Farzandi yonida bo'lganida soatlab telefonda gaplashmaydi:

"Ijtimoiy nuqtai nazardan,ideal-bu to'g'ri ota-ona,u o'zini bolaga qurbon qilishi kerak. Lekin u xushmuomalalikni talab qilishi va ular atrofdagilarga albatta yoqishi va albatta muvaffaqiyat qozonishiga ishonch hosil qilish kerak",-deya xulosa qiladi Irina Milodik bolalar psixologi,millatlararo amaliyotchi psixologlar assotsiyatsiya vakili.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To'laganova G.K. " Tarbiyasi qiyinuslubiy psixologiya.
2. Davletmin M.G. " Yosh davrlari va pedagogik psixologiya". Toshkent 2004-yil.
3. O'zME. Birinchi jild. Toshkent 2000-yil.
4. *E.G'oziyev. "Pedagogika psixologiya asoslari". Toshkent 1997*
5. *G'oziyev E.G'. Psixologiya (yosh davrlar psixologiyasi) T.O'qituvchi,1994*
6. *Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. T:TDPU,2004y.*
7. *Ibragimov X.I Yo'ldoshev U.A.,Bobomirzayev X.pedagogik psixologiya.*
8. *https://strategy.uz.*
9. *uz.m.wikipedia.org.*
10. *zarnews.uz.*